



UDK:81.22

Shohruh JO'RAYEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti,

E-mail: shjuraevphd@gmail.com

Fan va texnologiyalar universiteti, Phd. Y. Boboqulov taqrizi asosida.

O'ZBEKCHA RASMIY HUJJATLAR MATNIDA GIBRID QO'SHMA SO'ZLARDAGI LOTINCHA VA YUNONCHA TERMINELEMENTLAR

Annotatsiya

Maqola hozirgi o'zbek tiliga o'zlashgan qator gibrid qo'shma so'zlar tahliliga asoslangan. Mustaqilligimizdan keyingi yillarda, tilimizga ko'plab xorijiy terminelementlar o'zlashgan va ular orqali yasalgan gibrid qo'shma so'zlarning shakli va ma'nolari o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot maqsadi qilib, rasmiy hujjatlar matnida uchrovchi gibrid qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish belgilab olingan. Maqola davomida quyidagi vazifalar bajarilgan: lotincha va yunoncha elementlarning yuklovchi ma'nolariga ko'ra ajratib olish; o'zbek tilidagi gibrid so'zlar yasalishi; gibrid so'zlarni kalkalash; lotincha va grekcha elementli so'zlarning semantik-struktur o'zgarishlarini aniqlash kiradi. Mazkur tadqiqotni olib borishda tavsifiy tahlil va komponent tahlil metodlariga asoslanilgan.

Kalit so'zlar: Terminelement, o'zlashma, gibrid qo'shma so'zlar, kalkalash, lotin tili, yunon tili, rasmiy janr.

LATIN AND GREEK PREFORMATIVES IN HYBRID COMPOUNDS IN THE TEXT OF OFFICIAL DOCUMENTS OF UZBEKISTAN

Annotation

The present article examines the integration of hybrid compound words into contemporary Uzbek, focusing on those adopted in the post-independence period. The proliferation of foreign terms into the Uzbek language has led to the formation of hybrid compound words that forms and meanings remain unexplored. This research aims to analyze the semantic and structural characteristics of those hybrid compound words as they appear in official documents. The study encompasses several key objectives: elucidating the meanings of Latin and Greek elements, investigating the formation processes of hybrid words in Uzbek, and identifying lexical-semantical transformations in words incorporating Latin and Greek components. Methodologically, the research employs descriptive and component analysis to achieve a comprehensive understanding of these linguistic phenomena.

Key words: preformative, borrowing, hybrid words, calque, Latin language, Greek language, official genre.

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ТЕРМИНОЭЛЕМЕНТЫ В ГИБРИДНЫХ СОЕДИНЕНИЯХ В ТЕКСТЕ ОФИЦИАЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Статья основана на анализе ряда гибридных сложных слов, принятых в современный узбекский язык. За годы после обретения независимости в наш язык было заимствовано много иностранных терминов, а формы и значения образованных ими гибридных сложных слов не изучены. Поэтому целью данного исследования является изучение лексико-семантических особенностей гибридных сложных слов, встречающихся в текстах официальных документов. Задачи, выполненные в ходе статьи: значения латинских и греческих элементов; образование гибридных слов в узбекском языке; создание гибридных слов; включает выявление семантико-структурных изменений слов с латинскими и греческими элементами. Это исследование основано на методах описательного анализа и компонентного анализа.

Ключевые слова: Терминоэлемент, заимствование, гибридные слова, калькирование, латинский язык, греческий язык, формальный жанр.

Kirish. Ilm-fan va texnikaning rivojlanishi tillarda ham yangi tushuncha va terminlarning yuzaga kelishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri. Tilimiz rivojiga hissa qo'shayotgan yangi tushuncha va so'z birliklarining yasalish hodisalarini tadqiq qilish orqali lug'atimizga kirib kelayotgan terminlarning ma'no xususiyatlarini va ularning hosil qilinish jarayonlarini o'rganib boramiz. Holbuki, davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil, 19-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqida o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va nufuzini oshirish bo'yicha qiyosiy va turli sohalarga oid lug'atlar, ish yuritish va so'zlashuv qo'llanmalari nashr etish kabi bir necha vazifalar sanab o'tilgan [1]. Shu asnod, maqola maqsadi sifatida o'zbek tilidagi lotincha va grekcha elementlar orqali yasalgan gibrid qo'shma so'zlarning semantik-struktur xususiyatlarini tadqiq qilish belgilangan. Maqolada rasmiy janrga xos, yuqori turuvchi organlarning farmon, qaror va qonun matnlari tahlil obyektini qilib olingan, va tadqiqot vazifalariga: lotincha va yunoncha elementlarning ma'nolari; o'zbek tilidagi gibrid so'zlar yasalishi; gibrid so'zlarni kalkalash; lotincha va grekcha elementli so'zlarning semantik-struktur o'zgarishlarini aniqlash kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Termin – tushunchaning mohiyatini aniq va to'liq ifodalashi, uning shakliy jihatdan murakkab, bir necha qismdan iborat qo'shma so'zlarning vujudga kelishini taqozo etadi [2]. G. Vinokur “qo'shma so'zlar – doimo yangi tushunchani ifodalash ehtiyoji uchun emas, balki bir necha tushunchani bir so'z orqali lo'nda ifoda etish zarurati sababli ham muhimdir” degan [3]. So'ngi yillarda tilimizda yasalayotgan qo'shma so'zlar asosan ma'lum bir soha bilan bog'liq yangi tushunchani anglatuvchi qo'shma terminlar tashkil etmoqda. Xuddi qo'shma so'zlar kabi qo'shma terminlar ham tilning o'z qatlamidan, o'zlashma so'zlardan va ikki yoki undan ortiq tillarning elementlaridan o'zaro kombinatsiya orqali hosil qilinadi [2].

Bugungi kunda termin yoki qo'shma so'zlar nafaqat tor doirada (ma'lum bir soha bilan bog'liq nutq nazarda tutilgan) ishlatilibgina qolmay, kundalik nutqimizda ham tez tez uchray turadi. Aksariyat zamonaviy tushunchalar esa xorijiy so'zlar bilan ifodalanishi, tilimiz leksikasi o'zlashma qatlamli boyishiga xizmat qiladi. Xorijiy termin-o'zlashmalar tilimizga qabul qilinishi so'z o'zlashtirish mezonlariga bo'y sungan holda bir necha usullar bilan qabul qilinadi. Shunday usullardan biri – kalkalash (fransuzcha calque – “nusxa” so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda mazkur termin bilan bir qatorda semantik tarjima,

tarjima-o'zlashmalar kabi terminlar ham qo'llaniladi) usuli bir tildan ikkinchi tilga leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonlarida keng qo'llaniladigan turidir. Jumladan, H. Dadaboyev o'zlashma terminlarning kalkalash usullarini quyidagicha turlarga ajratadi: (1) qo'shma terminning ikkala komponenti ham o'zbekcha mos so'zlar bilan tarjima qilinishi; (2) qo'shma terminlarning ikkinchi xorijiy komponenti o'zbek tilidagi mos so'z bilan emas, balki affiksalar bilan o'zlashtirilishi; (3) qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti ayni o'zbekcha mos so'z bilan o'zlashtirilishi [4]. Gibrid qo'shma so'zlar yasashda xorijiy terminelementlarning vazifasi muhim. Ular orqali tilda yuzlab yangi tushunchani ifodalovchi leksik birliklarni hosil qilish mumkin. O'zlashma qo'shma so'zlarning terminelementlari nazariy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, tilshunoslikda xalqaro prepozitiv terminelementlar (ikki yoki uch komponentli gibrid qo'shma so'zlarda birinchi va ikkinchi komponentlarida keluvchi o'zlashma so'z yoki morfemalar) "sifat morfema", "prefiks", "prefiksoid", "prepozitiv bloklar", "analitik aniqlovchilar", "prepozitsion yuklamar" singari terminlar bilan yuritiladi [2]. O'zbek tilida prepozitiv terminelementlarni tadqiqotlarida A. Madvaliev quyidagi 3 guruhga ajratgan:

Lotincha va yunoncha mustaqil ma'noga ega so'zlarning terminelement vazifasida kelishi: avto, agro, bio, makro, mikro, elektro, kripto va h.k.;

Lotincha va yunoncha sanoq va tartib sonlarni ifodalovchi so'zlarning terminelement vazifasida kelishi: bi-, geksa-, di-, milli-, detsi-, gepta-, penta- va h.k.;

Lotincha va yunonchaga xos yuklama va predloglar xarakteridagi terminelementlar: de-, inter-, kontr-, eks-, trans-, ana-, ultra- va h.k [4].

1-ilova

Lotincha terminelementlar	Lotincha terminelementlar bilan yasalgan gibrid qo'shma so'zlar.
eko	ekotizim, ekopark, ekohudud
radio	radioloyiha, radioeshittirish
infra	infrastruktura, infratuzilma
ultra	ultrabinafsa

2- ilova

Yunoncha terminelementlar	Yunoncha terminelementlar bilan yasalgan gibrid qo'shma so'zlar
mikro	mikroqarz, mikrokredit, mikromoliyalashtirish
makro	makroiqtisodiy
tele	teleko'rsatuvlar
agro	agrotexnika, agroximiya, agrokimyoviy, agrosanoat, agrosubsidiya
kilo	kilometraj
avto	avtoklav, avtotransport, avtomobil, avtopoezd, avtootkazgich
geo	geoportal, geodeziya
mono	monomarkaz
elektr	elektruskuna, elektrاسبob

Gibrid qo'shma so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirish usullari. O'zbek tiliga gibrid terminlarning qabul qilinish jarayoni yillar davomida o'zlashtirishning bir necha bosqichidan o'tganini kuzatishimiz mumkin. Birinchi uslub bu – gibrid qo'shma so'zning har ikki yoki uch qismi ham kalkalanmasdan, xorijiy tildan o'zbek tiliga aslicha o'zlashtirish. Bunda, xorijiy gibrid qo'shma so'z struktura va semantik xususiyatini saqlab qoladi, ba'zi holatlarda morfemik va fonetik jihatdan o'zbek tili normalariga moslashtiriladi. Masalan, geoportal, agroximiya, avtomobil, mikrokredit, ekopark va h.k. Ikkinchi uslubda ya'ni qo'shma terminning birinchi qismidagi organiklik saqlanib qoladi, ikkinchi qismi esa o'zbek tiliga semantik tarjima qilinadi: makroiqtisodiy, teleko'rsatuv, infratuzilma, elektruskuna, avtootkazgich va h.k.

Rasmiy matnlarni o'rganish jarayonida duch kelingan yangiligimizdan biri bu to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan ma'lum bir gibrid termin yoki so'zning ma'lum bir vaqtdan keyin qisman kalkalanishga uchrashi bo'lib, bu kabi holatlar quyidagi o'zlashmalarda kuzatildi:

Agroximiya – yunoncha agro – "dala, maydon" va ruscha ximiya so'zlari qo'shilishidan yasalgan termin, "agrar xo'jalikda foydalaniladigan kimyoviy moddalar" bilan bog'liq tushunchani ifodalaydi. 1991-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-295-sonli farmonida [6] agroximiya shaklida kelishi, va

Metod. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqolamizda olib boriladigan izlanish va tahlillar fokusi o'zbekcha rasmiy hujjat (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, farmoyish va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Vazirliklar va ularga bo'y sunuvchi idoralar qaror va buyruqlarini o'z ichiga olgan) matnlarida uchrovdchi gibridlik qonuniyatiga mos keluvchi qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishda tavsifiy tahlil (deskriptiv tahlil) va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Hozirgi adabiy o'zbek tilida sodir bo'layotgan leksik-semantik o'zlashmalarni aniqlashda turli sohalar bo'yicha mavjud rasmiy hujjatlarni to'plash, tadqiqot obyektidan tahlil qilinishi kerak bo'lgan o'zlashmalarda sodir bo'layotgan leksik o'zgarishlar tavsiflash metodi mezonlar orqali amalga oshirildi. Ikki tilli konstruktsiya asosidagi qo'shma so'zlardagi har bir alohida semaning ma'no yuklash xususiyatlarini qismlarga ajratib, ikkinchi qismlaridagi kalkalangan va kalkalanmagan leksik birliklarning gibridlikda yuzaga kelgan yangi ma'nolari komponent tahlil usullarining izohlash va parafrazlash jarayonlari orqali amalga oshirildi [5].

Natijalar va muhokama. O'zbekcha rasmiy hujjatlardagi lotincha va yunoncha prefiksoidlar bilan yasalgan gibrid qo'shma so'zlar. Tadqiqot davomida o'rganilgan rasmiy hujjatlarda 30dan ortiq keng uchrovdchi lotincha va yunoncha terminelementlar bilan yasalgan qo'shma terminlar aniqlandi. Shu jumladan, gibridlik qonuniyatiga mos tushuvchi qo'shma terminlar ajratilib, to'g'ridan to'g'ri va semantik kalkalash orqali o'zlashgan gibrid qo'shma so'zlarning lotincha terminelementlar bilan yasalgani 1- ilovada va yunoncha terminelementlar bilan yasalgan gibrid so'zlar esa 2-ilovada keltirilgan.

hozirgi rasmiy hujjatlarda (masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-71-son qarori [7]) agrokimyoshaklida ruscha ximiya so'zi o'zbek tilidagi kimyo so'zi bilan semantik tarjima qilinib kelishi kuzatiladi.

Infrastruktura – lotincha infra – "ostida" ma'nosini yuklovchi terminelement bo'lib, struktura so'zi qo'shilishi bilan yasalgan qo'shma so'z "ishlab chiqarish va tovar muomalasiga, shuningdek inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli xizmat ko'rsatuvchi sohalar majmuini" anglatadi [2]. 1990-yillar kesimidagi aksariyat davlat rasmiy hujjatlarida, jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 450-sonli [8] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 210-sonli [9] qarorlarida infrastruktura so'zi kalkalanmasdan aslicha qo'llanilganligi kuzatildi. So'ngi yillardagi hukumat hujjatlari o'rganilishi jarayonida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 162-sonli qarori [10] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 86-sonli qarorlarida [11] mazkur so'zning kalkalangan muqobilidan - infratuzilma - keng foydalanilish holatlari aniqlandi.

Mikrokredit termini grekcha mikro – kam, oz ma'nolarida, va kredit so'zi lotincha "creditor, credito" so'zlari orqali yasalgan va bank yoki nonbank firma tomonidan jismoniy va

yuridik shaxslarga beriladigan, ma'lum shartli foizga ega kam miqdordagi pul mablag' qarzini ifodalaydi. "Mikrokredit" gibriddi termini xuddi "infrastruktura" qo'shma so'zi kabi so'ngi yillardagi o'zbekcha rasmiy hujjatlarda mikroqarz shaklida kalkalangan, bunda "kredit" so'zi o'zbekcha qarz muqobili bilan semantik tarjimalangan. Rasmiy matnlarda, jumladan 3205 sonli O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining qarori matnida [12], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 162-sonli qarori matnlarida [10] mikroqarz gibriddi o'zlashmadan mikrokredit terminiga sinonimik ma'noda qo'llanilganligi kuzatildi. 1999, 2000, 2001, 2002 yillar davomida chiqarilgan rasmiy hujjatlarda esa faqat mikrokredit o'zlashmasining kalkalanmagan shakli, aslicha qo'llanilganligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida o'zbek tilida lotincha va yunoncha terminelementlar yordamida, tilimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma'lum bir sohada tushunchani ifodalash uchun yasalgan yangi gibriddi qo'shma so'zlar ham aniqlandi. O'zbekcha rasmiy matnlarda yangi tushunchani ifodalovchi bunday leksemalarning birinchi qismi lotincha yoki yunoncha prefiksoidlar bilan o'zbekcha yoki o'zlashma so'zlarni qo'shish orqali hosil qilingan. Quyida o'zbek tilida uchrovchi o'zlashma terminelement bilan yasalgan terminlardan birining leksik xususiyatiga to'xtalsak:

Monomarkaz – yunoncha mono – “yagona, yakka” va o'zbekcha markaz so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan mazkur leksik birlik inglizcha yoki ruscha manbalarda topilmadi, A. Madvaliyev tahrir ostidagi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham yuqoridagi leksik birlik berilmagan. Monomarkaz termini

rasmiy-idoraviy hujjat matnlarida ilk marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3913-sonli qarorida [13] ishlatilgan. Mazkur qo'shma so'zning lug'aviy izohi, qaror matnida keltirilgan kontekstual vazifasidan kelib chiqilsa, “ma'lum bir region doirasida biror bir turdagi xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan yagona markaz” tushunchasini ifodalaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zlashma terminelementlar bilan yasalgan qo'shma so'zlar nafaqat tilimiz lug'at boyligiga hissa qo'shadi, qolaversa o'zbek tili imkoniyatlaridan kelib chiqib terminelementlar orqali biror bir sohaga oid yangi tushunchalarni qisqa va lo'nda ifodalash uchun ham imkoniyatlar yaratib beradi.

Mustaqillikning ilk dekadasi adabiy tilimizga o'zlashgan ko'plab leksemalar yillar mobaynida nutqimizda keng qo'llanilib qolmasdan, keyinchalik adabiy til normalariga mos ravishda kalkalanish jarayoniga ham yuz tutishi aniqlandi. Monomarkaz, agrosubsidiya kabi neologizmlarning tor doirada ma'lum bir tizim yoki yo'nalish nomi sifatida qo'llanilishi, va asta sekinlik bilan nutqimizda faol turdosh otga aylanib unikal bir jarayon yoki tushuncha sifatida qo'llanilishini ham taxmin qilishimiz mumkin.

Albatta bunday ko'lamdagi gibriddi qo'shma so'zlarni tadqiq qilish, keng ma'noviy xususiyatlarini (polisemiya, sinonimiya kabilar) o'rganish, yangi termin va tushunchalarni ifodalovchi leksikalarning morfologik va sintaktik strukturalari tahlil qilish, va imloviy normalarini belgilash kabi ko'plab vazifalar ochiq qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. <https://president.uz/oz/lists/view/2954>
2. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луг'ати [Матн] / Абдуваҳоб Мадвалиев, Неймат Маҳкамов, Зухра Мираҳмедова, Акмалхўжа Саиднўмонов. – Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2020. – 280 б.
3. Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. V. – М., 1939. – С. 46.
4. Dadaboyev, H. (2020). O'zbek terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.
5. S. Widyastuti. (2010). Componential analysis of meaning: theory and applications. Journal of English and Education, Vol. 4, No 1. – P. 116-128.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-295-son farmoni. (1991-yil, 29-noyabr). Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlikni davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-233867>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-71-son qarori. (2024-yil, 13-fevral). Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va undagi unumdorligini oshirishni qo'llab quvvatlashning qo'chimcha chora-tadbirlari to'g'risida. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6798455>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-450-son qarori. (1996-yil, 19-dekabr). 2000-yilgacha bo'lgan davrda respublikaning magistral avtomobil yo'llarda avtoservis infrastukturasini rivojlantirish dasturi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-1642852>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-210-son qarori. (1995-yil, 3-iyun). O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-428924>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-162-son qarori. (2023-yil, 24-may). Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6472548>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-86-son qarori. (2023-yil, 27-fevral). Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6394296>
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining MBQ-3205-1-son qarori. (2022-yil, 16-sentabr). Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-6198118>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3913-son qarori. (2018-yil, 20-avgust). Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolik mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-4213627>